

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2025-yil 29-dekabr kuni 522-sonli  
buyrug'iga  
2-ilova



**Vengriya Hukumati stipendiyalari (“Stipendium Hungaricum”) dasturi doirasida 2026/2027-o‘quv yilida  
O‘zbekiston fuqarolariga ajratilgan grant o‘rinlariga nomzodlar  
TANLOVI MEZONLARI**

№	<b><u>Tanlovning 1-bosqichi.</u></b> <b>Quyidagi talabgorlarga tanlovda qatnashish huquqi berilmaydi:</b>
1.	Vengriya tomonidan talab etilgan hujjatlar ro‘yxati va tartibiga mos kelmagan (ya’ni, Vengriyadan yuborilgan dastlabki ro‘yxatda qizil rangda ko‘rsatilgan) ____ nafar talabgorlar qatorida bo‘lsa;
2.	O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi ekanligi bilan bir paytda boshqa davlat fuqaroligiga ham mansub bo‘lsa va/yoki ayni vaqtda O‘zbekiston hududida doimiy istiqomat qilmayotgan bo‘lsa;
3.	Yaqin <b>3</b> (uch) yil davomida chet el davlati tomonidan ajratilgan grantlardan (shu jumladan, Vengriyaning mazkur grantlaridan) foydalangan bo‘lsa.

**Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, yakuniy tanlangan nomzodlar ro‘yxatida ustuvorlik berish ketma-ketligi, belgilangan kvotaga muvofiq, quyidagicha bo‘ladi:

- ro‘yxatda birinchi navbatda (eng yuqori reyting bilan) doktoranturaga hujjat topshirganlar;
- ikkinchi navbatda – magistratura bosqichiga;
- uchinchi navbatda – bakalavr bosqichiga hujjat topshirganlar ko‘rsatiladi.

№	<p style="text-align: center;"><b><u>Tanlovning 2-bosqichi mezonlari.</u></b></p> <p style="text-align: center;"><b>DOKTORANTURA (“PhD”, “PG”)</b> <b>bosqichidagi grantlarga talabgorlar uchun</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Ball</b> <b>(jami 100 balldan)</b></p>
1.	<p>Ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi to’g’risidagi sertifikatini yo’q yoki sertifikatning amal qilish muddati tugagan bo’lsa (oxirgi 2 yildagi rasmiy ta’limni o’sha xorijiy tilda olgan talabgorlar bundan mustasno);</p>	<p>Tanlovda qatnashish huquqi berilmaydi.</p>
2.	<p>Nomzod tomonidan tanlangan ta’lim yo’nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturida kadrlar tayyorlash uchun belgilangan ustuvor maqsadlarga to’g’ri kelishi:</p> <p>Quyidagi sohalar uchun – 20 ball:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Muhandislik va texnik sohalar;</li> <li>- Energetika va muqobil energiya manbalari;</li> <li>- Qishloq xo’jaligi;</li> <li>- Tibbiyot;</li> <li>- Kimyo;</li> <li>- Biologiya;</li> <li>- Matematika;</li> <li>- Fizika, yadro fizikasi;</li> <li>- Geologiya;</li> <li>- Sun’iy intellekt;</li> <li>- Axborot texnologiyalari.</li> </ul> <p>Yuqoridagilardan boshqa sohalar uchun – 10 ballgacha.</p>	<p>0–20 ballgacha</p>
3.	<p>Xorijiy tillarni, jumladan ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi (xalqaro miqyosda tan olinadigan, mavjud sertifikat asosida):</p>	<p>0–20 ballgacha</p>

	<p>B2 darajasi uchun – 5 ball;  C1 darajasi uchun – 15 ball;  C2 darajasi uchun – 20 ball.</p> <p><i>(“Duolingo”, “EF SET” kabi onlayn sertifikatlar tan olinmaydi);</i></p> <p>Oxirgi 2 yilda olgan rasmiy ta’limi ingliz tilida olib borilgan bo’lsa (masalan, Toshkent shahridagi Vestminster xalqaro universitetida) – 10 ball.</p>	
4.	Venger oliy ta’lim muassasasi (OTM) professoridan taklifnoma mavjudligi.	0–15 ballgacha
5.	Ilmiy izlanish olib borish rejasi (“Research plan”).	0–15 ballgacha
6.	O‘zbekiston oliy ta’lim muassasasida yoki ilmiy tadqiqot tashkilotida faoliyat yuritayotganligi.	0–10 ballgacha
7.	<p>Xorijiy, respublika yoki OTM ilmiy jurnallarida chop etilgan maqola va tezislar muallifi yoki hammuallifligi:</p> <p>1 yoki 2 ta maqola uchun – 5 ball;  3 yoki undan ko‘p maqola uchun – 10 ball;</p>	0–10 ballgacha
8.	Mehnat staji va ma’lum malakaga ega bo’lishi.	0–5 ballgacha
9.	Ilmiy loyiha va ishlanmasi amaliyotda qo‘llanilganligi, ilmiy yutuqlari.	0–5 ballgacha

№	<p style="text-align: center;"><b><u>Tanlovning 2-bosqichi mezonlari.</u></b></p> <p style="text-align: center;"><b>MAGISTRATURA (“MA”, “MSc”) bosqichidagi grantlarga talabgorlar uchun</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>Ball (jami 100 balldan)</b></p>
1.	<p>Ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi to‘g‘risidagi sertifikatini yo‘q yoki sertifikatning amal qilish muddati tugagan bo‘lsa (oxirgi 2 yildagi rasmiy ta’limni o‘sha xorijiy tilda olgan talabgorlar bundan mustasno);</p>	<p>Tanlovda qatnashish huquqi berilmaydi.</p>
2.	<p>Nomzod tomonidan tanlangan ta’lim yo‘nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturida kadrlar tayyorlash uchun belgilangan ustuvor maqsadlarga to‘g‘ri kelishi:</p> <p>Quyidagi sohalar uchun – 25 ball:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Muhandislik va texnik sohalar;</li> <li>- Energetika va muqobil energiya manbalari;</li> <li>- Qishloq xo‘jaligi;</li> <li>- Tibbiyot;</li> <li>- Kimyo;</li> <li>- Biologiya;</li> <li>- Matematika;</li> <li>- Fizika, yadro fizikasi;</li> <li>- Geologiya;</li> <li>- Sun‘iy intellekt;</li> <li>- Axborot texnologiyalari.</li> </ul> <p>Yuqoridagilardan boshqa sohalar uchun – 15 ballgacha.</p>	<p>0–25 ballgacha</p>
3.	<p>Xorijiy tillarni, jumladan ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi (xalqaro</p>	<p>0–25 ballgacha</p>

	<p>miqyosda tan olinadigan, mavjud sertifikat asosida):</p> <p>B2 darajasi uchun – 10 ball;  C1 darajasi uchun – 17 ball;  C2 darajasi uchun – 25 ball.</p> <p><i>(“Duolingo”, “EF SET” kabi onlayn sertifikatlar tan olinmaydi);</i></p> <p>Oxirgi 2 yilda olgan rasmiy ta’limi ingliz tilida olib borilgan bo’lsa (masalan, Toshkent shahridagi Vestminster xalqaro universitetida) – 12 ball.</p>	
4.	Bakalavriat ta’limi davridagi reytingi (baholari) va bakalavriat yo‘nalishining hozirda hujjat topshirayotgan magistraturaga mos yoki turdoshligi.	0–15 ballgacha
5.	<p>Xorijiy, respublika yoki OTM ilmiy jurnallarida, konferensiyalarda chop etilgan maqola yoki tezislar muallifi yoki hammuallifligi:</p> <p>1 yoki 2 ta maqola uchun – 5 ball;  3 yoki undan ko‘p maqola uchun – 10 ball;</p>	0–10 ballgacha
6.	O‘zbekiston oliy ta’lim muassasasida yoki ilmiy tadqiqot tashkilotida faoliyat yuritayotganligi.	0–10 ballgacha
7.	<p>Qo‘shimcha ilmiy yutuqlari va ijtimoiy faolligi:</p> <p>Asoslovchi hujjatlar bo‘lmasa, aloqador hujjatlarga asosan – 5 ballgacha;  Asoslovchi hujjatlar bo‘lsa – 6 balldan 10 ballgacha;</p>	0–10 ballgacha
8.	Mehnat staji va ma’lum malakaga ega bo‘lishi.	0–5 ballgacha

№	<p align="center"><b><u>Tanlovning 2-bosqichi mezonlari.</u></b></p> <p align="center"><b>BAKALAVRIAT (“BA”, “BSc”) bosqichidagi grantlarga talabgorlar uchun.</b></p>	<p align="center"><b>Ball</b> <b>(jami 100 balldan)</b></p>
1.	<p>Ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi to’g’risidagi sertifikatini yo’q yoki sertifikatning amal qilish muddati tugagan bo’lsa (oxirgi 2 yildagi rasmiy ta’limni o’sha xorijiy tilda olgan talabgorlar bundan mustasno);</p>	<p>Tanlovda qatnashish huquqi berilmaydi.</p>
2.	<p>Nomzod tomonidan tanlangan ta’lim yo’nalishi, mutaxassislik yoki ixtisoslik O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturida kadrlar tayyorlash uchun belgilangan ustuvor maqsadlarga to’g’ri kelishi:</p> <p>Quyidagi sohalar uchun – 30 balldan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Muhandislik va texnik sohalar;</li> <li>- Energetika va muqobil energiya manbalari;</li> <li>- Qishloq xo’jaligi;</li> <li>- Tibbiyot;</li> <li>- Kimyo;</li> <li>- Biologiya;</li> <li>- Matematika;</li> <li>- Fizika, yadro fizikasi;</li> <li>- Geologiya;</li> <li>- Sun’iy intellekt;</li> <li>- Axborot texnologiyalari.</li> </ul> <p>Yuqoridagilardan boshqa sohalar uchun – 15 ballgacha.</p>	<p>0–30 ballgacha</p>
3.	<p>Xorijiy tillarni, jumladan ta’lim olib boriladigan xorijiy tilni bilish darajasi (xalqaro miqyosda tan olinadigan, mavjud sertifikat asosida):</p>	<p>0–30 ballgacha</p>

	<p>B2 darajasi uchun – 10 ball;  C1 darajasi uchun – 20 ball;  C2 darajasi uchun – 30 ball.</p> <p><i>(“Duolingo”, “EF SET” kabi onlayn sertifikatlar tan olinmaydi);</i></p> <p>Oxirgi 2 yilda olgan rasmiy ta’limi ingliz tilida olib borilgan bo’lsa – 15 ball.</p>	
4.	<p>Umumiy o’rta ta’lim yoki o’rta maxsus ta’limdagi baholari, olgan ta’limining hozirda hujjat topshirayotgan bakalavriat yo’nalishiga mosligi yoki turdoshligi.</p> <p>Reyting baholari:</p> <p>3,5 – 3,9 baho uchun – 7 – 9 ball;  4 – 4,5 baho uchun – 10 – 12 ball;  4,6 – 5 baho uchun – 13 – 15 ball.</p>	0–15 ballgacha
5.	<p>Motivatsiya inshosi (“Motivation letter”)</p>	0–15 ballgacha
6.	<p>Ijtimoiy hayotda faolligi.</p> <p>Asoslovchi hujjatlar bo’lmasa, aloqador hujjatlarga asosan – 5 ballgacha;  Asoslovchi hujjatlar bo’lsa – 6 balldan 10 ballgacha.</p>	0–10 ballgacha